

Uzbekistan Airways Londonga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda

2022 2 Avgust

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Toshkent-London-Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviaqatnovlar soni oshirilganini ma'lum qiladi. Hozirda Buyuk Britaniya poytaxtiga qatnovlar haftada 2 marta – seshanba va juma kunlari amalga oshirilayotgan edi. Uzbekistan Airways joriy yilning 21-avgustdan 23-oktyabrga qadar ushbu xalqaro yo'nalishda yakshanba kunlari qo'shimcha qatnovlarni yo'lga qo'yadi:

Toshkentdan uchish: 02:40 (Toshkent vaqti bilan)

Londonga yetib borish: 06:20 (London vaqti bilan)

Londondan uchish: 07:20 (London vaqti bilan)

Toshkentga yetib kelish: 18:20 (Toshkent vaqti bilan)

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytida 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.